

Namangan viloyati
Statistika boshqarmasi

NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

**2022- yil
Yanvar-iyul**



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng istiqbolli va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. Savdo va transportdan tortib moliyalashtirish, sug'urtalash va har xil turdagi vositachilikka qadar keng faoliyat doirasini qamrab oladi. Aynan shu sektor iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda band bo'lganlar soni bo'yicha iqtisodiyotning asosiy qismini tashkil qiladi.

**Xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan
korxona va tashkilotlar
ulushi –
63,3 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
2 723,7
ming so'm**

**Ko'rsatilgan bozor
xizmatlari hajmi –
8 021,8
mlrd. so'm**

**Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi –
67,3 %**

**Ko'rsatilgan
bozor
xizmatlarining
o'sish
sur'atlari -
115,2 %**

**Aholi jon boshiga
ko'rsatilgan xizmatlarning
o'sish sur'atlari –
112,7 %**

2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar




Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xildagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan holda umumlashtirilgan toifadir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **8 021,8** mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi **1 583,6** mlrd. so'mga oshdi.

Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati **115,2** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-iyul oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	2021- yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Xizmatlar - jami	8 021,8	115,2
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	407,2	124,0
Moliyaviy xizmatlar	1 330,1	122,0
Transport xizmatlari	1 373,5	109,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 258,8	108,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	201,5	120,3
Savdo xizmatlari	2 714,9	116,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	223,4	111,8
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	377,6	113,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	180,1	115,1
Ijara xizmatlari	155,8	116,7
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	229,6	110,5
Shaxsiy xizmatlar	517,5	106,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	85,8	102,0
Boshqa xizmatlar	224,8	115,8


Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-iyul oylarida Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari qayd etilgan – **124,0 %**. Nisbatan past me'morchilik sohasidagi xizmatlarida kuzatilgan – **102,0 %**.




2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

2022-yilning yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari hajmi **1 373,5** mlrd. so'mga teng bo'lib, ularning o'sishi 2021- yilning shu davriga nisbatan **109,6** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi **17,1** % ni tashkil etdi.

Turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi (2022- yil yanvar – iyul oylarida)



2022- yilning yanvar-iyul oylarida transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi **91,7** % dan yuqorini tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyul oylarida ushbu transport turi tomonidan ko'rsatilgan xizmatlarning ulushi **92,5** % ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Savdo bu – tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarini zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida, ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi **33,8 %** ni tashkil etib, bu **2 714,9** mlrd. so'mga to'g'ri keldi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **2 091,5** mlrd. so'mga yoki umumiy hajmning **32,5 %** iga to'g'ri kelgan.

Savdo xizmatlari

2022-y.
yanvar-iyul

2 714,9
mlrd. so'm



2 091,5
mlrd. so'm



Hajmning
o'sishi

116,3 %



111,7 %

2021-y.
yanvar-iyul




2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

2022- yilning o'tgan davrida chakana savdoning ulushi umumiy savdo xizmatlari hajmining beshdan to'rt qismini, aniqrog'i, **75,8 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida ulgurji savdo xizmatlari ulushi (avtomobil va mototsikl savdosidan tashqari) **18,6 %** ga yetdi. Savdo xizmatlari tarkibida eng kam hajm avtomobil va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi (shu jumladan, ularni ta'mirlash) bo'yicha xizmatlar ulushi **5,6 %** ni tashkil etdi.

Savdo xizmatlarining tarkibi (2022- yilning yanvar-iyul oylarida)



Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyul oylarida chakana savdo ulushi **77,9 %** ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Moliyaviy xizmatlar hajmi – moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-iyul oylarida)

2022- yil yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi **1 330,1** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyul oylarida ularning hajmi **1 072,3** mlrd. so'mga teng bo'lgan.



2022- yilning o'tgan davrida ularning umumiy xizmatlar hajmidagi ulushi **16,6** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **16,7** % ni tashkil etgan.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar hajmining **257,8** mlrd. so'mga ko'payishi kuzatildi.

2022- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlarning o'sishi **122,0** % ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida ularning o'sish sur'ati **126,5** % ni tashkil etgan.



2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi **90,6 %** ni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar- iyul oylari yakuniga ko'ra, sug'urta xizmatlarining ulushi **6,6 %** oralig'ida qayd etildi.

Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning ulushi umumiy hajmning **2,8 %** ini tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2022- yil yanvar-iyul oylarida)

Yordamchi moliyaviy
faoliyat

Sug'urta bo'yicha
xizmatlar



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida moliyaviy xizmatlar umumiy hajmining **91,2 %** ini sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar tashkil etgan.

Sug'urta va nafaqa
ta'minoti bo'yicha
xizmatlardan tashqari
moliyaviy xizmatlar

Sug'urta xizmatlarining ulushi **6,4 %** ga to'g'ri kelgan. Moliyaviy va sug'urtalashga tegishli yordamchi xizmatlar **2,4 %** ni tashkil etgan .

2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Axborot texnologiyalarining rivojlanish va foydalanish darajalari, shuningdek, ularni ta'minlaydigan telekommunikatsiya infratuzilmasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim omillariga aylanib, barqaror rivojlanish va mamlakatning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi samaradorligini ta'minlaydi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari

2021- y.
yanvar-iyul

325,0
mlrd. so'm

106,8%

5,0 %

Xizmatlar hajmi

O'sish sur'ati

Jami hajmdagi
ulushi

Hajmning o'sishi

82,2 mlrd. so'mga

2022- y.
yanvar-iyul

407,2
mlrd. so'm

124,0 %


5,1 %

2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egalladi. 2022- yil yanvar-iyul oylarida ularning ulushi **92,5 %** ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da



Taqqoslash uchun: 2021- yilning yanvar-iyul oylarida telekommunikatsiya xizmatlarining ulushi **93,4 %** ni tashkil etgan.


2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblangan **ta'lim va fan sohasini** rivojlantirish – uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirishdir.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar



2022- yilning yanvar-iyul oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **377,6 mlrd. so'mga** yetdi yoki bozor xizmatlari umumiy hajmining **4,7 %** ini tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **113,8 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar


Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari, shuningdek, stomatologiya, fizioterapiya va gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya, sanitariya va epidemiyaga qarshi profilaktika muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam hamda tibbiyot xizmatlari uchun ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymati hisoblanadi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar

2022- y.
Yanvar-iyul




180,1 mlrd. so'm




Xizmatlar hajmi

2,2 %




Xizmatlarning
jami hajmidagi ulushi

115,1%




O'sish sur'ati

2021- y.
Yanvar-iyul




141,2 mlrd. so'm

2,2 %



145,9 %



2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi – qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

141,6 mlrd.
so'm

201,5 mlrd.
so'm

Xizmatlar
hajmi

2021- y.
yanvar-iyul

2022- y.
yanvar-iyul

116,8 %

120,3 %

O'sish
sur'ati




2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

2021-yil yanvar-iyul oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi ko'rib chiqilayotgan davrda **59,9** mlrd. so'mga ko'paydi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



2022- yil yanvar-iyul oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning umumiy hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi **81,5** % bilan ustunlik qildi.

Taqqoslash uchun: 2021- yil yanvar-iyul oylarida ushbu xizmat turlarining ulushi **82,6** % ni tashkil etgan.

Namangan viloyati statistika boshqarmasi



2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar

Hududlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyul oylarida)	Hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	
		2022- y.	2021- y.
Namangan viloyati	8 021,8	115,2	119,6
Namangan sh.	3 298,1	121,5	119,9
tumanlar:			
Mingbuloq	298,9	111,1	120,8
Kosonsoy	412,4	113,5	119,4
Namangan t.	413,0	111,7	121,8
Norin	350,9	109,2	122,0
Pop	488,5	106,4	123,4
To'raqo'rg'on	517,1	111,0	114,9
Uychi	479,0	111,4	117,2
Uchqo'rg'on	378,9	110,5	117,3
Chortoq	436,8	111,8	120,1
Chust	542,1	115,7	119,8
Yangiqo'rg'on	406,0	110,3	117,7


2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari, milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda, respublikaning har bir tuman va viloyatlarining barcha iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, % da (2022- yil yanvar-iyul oylarida)



2022- yil yanvar-iyul oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulushni Namangan shahri tashkil etdi – **41,1 %** (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – **39,0 %**). Xizmat ko'rsatish sohasining eng past ko'rsatkichlari Mingbuloq tumanida – **3,7 %** (2021- yilning yanvar-iyul oylarida – **3,9 %**) qayd etildi.

2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

Xizmatlar hajmi

Hajmning
o'sishi

2 723,7
ming so'm

488,5 ming
so'mga



112,7 %

O'sish sur'ati

2022- yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 723,7** ming so'mga yetdi.

2021- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **112,7 %** ni tashkil etdi.

Taqqoslash uchun:

2021 - yilning yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **2 235,2** ming so'mni tashkil etgan.

2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan o'sish sur'ati **117,2 %** da qayd etilgan.

2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Xizmatlar sohasi xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlar, shuningdek, notijorat tashkilotlarni qamrab oladi.

**2022- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida
faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar
to'g'risida ma'lumot**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar
sohasida faoliyat
ko'rsatayotgan
korxona va
tashkilotlar soni

22 202
birlik



957
birlikka
o'sgan

2021- yilning
mos davriga
nisbatan ular
sonining
o'sishi

2021- yilning
mos davriga
nisbatan
o'sish sur'ati

104,7 %



4,3 %

Ularning
umumiy
sonidagi
ulushi




2022- yil yanvar-iyul

Dastlabki ma'lumotlar



Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagiga aylanib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish, insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi



2022- yil yanvar-iyul oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulushi **66,9 %** ni tashkil etdi

2022- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2022- yilning 1- avgust holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hissasi **80,1 %** ga to'g'ri keldi.

1- avgust
holatiga

2021- y.

86,7 %

2022- y.

87,1%

Xizmatlar sohasi
statistikasi bo'limi
Tel.: 69-211-72-00